

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSION LOYIHALARNI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Axmedova Yulduz

Jizzax politexnika instituti

Iqtisodiyot va menejment kafedrası assistenti

Shaldarbekova Ayshe Baktashevna

Janubiy Qozoqiston Respublikasi, M.Auvezov nomidagi

universitet o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada investitsiya loyihalarini jalb etish va uning jozibadorligini oshirishda investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish va jamiyat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishga qaratilgan qator huquqiy asoslar to‘g‘risida yoritilgan.

Tayanch atamalar: investitsiya, investor, investitsiya loyihalari, qonun va farmoyishlar, huquqiy asoslar.

Annotation: the article covers a number of legal frameworks aimed at further developing investment activities and improving the efficiency of society's production in attracting investment projects and increasing its attractiveness.

Keywords: investment, investor, investment projects, Law and orders, legal framework.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotga investitsion loyihalarni jalb etishni rivojlantirish faol investitsiya siyosati orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Shu nuqtai nazrdan, investitsiya siyosati - davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida belgilangan strategik maqsadlarga erishish hamda iqtisodiy siyosatning qisqa muddatli va uzoq muddatli istiqbol uchun belgilangan vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. U ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish

maqsadida iqtisodiy faoliyat sub'ektlari uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratish orqali mamlakatda investitsiya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmuini ifoda etadi. Investitsiya siyosatining asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish va jamiyat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishdan iborat.

Investitsiya faoliyati yuridik va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatiga sarmoya kiritishiga asoslanadi. Bu sarmoya qo'shimcha qiymat va iqtisodiy o'sishni hosil qiladi. Shu jihatdan, faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish orqali investitsiya faoliyatini rivojlantirish muhim masala hisoblanadi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, hech qaysi bir davlat jahon iqtisodiyotidan ajralgan holda tashqi yordamlarsiz, boshqacha aytganda xorijiy sarmoya va ko'maklarsiz iqtisodiy taraqqiyotga erisha olmagan. Rivojlangan davlatlarning tajribasi xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni qayta qurish, modernizatsiyalash va yuksaltirishdagi o'rni nihoyatda katta ekanligini ko'rsatadi.

Investitsiya loyihasi to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjatlar to'plami hisoblanadi.

Shu sababli mazkur hujjatni – investitsiya loyihasini ishlab chiqish o'ziga xos mas'uliyat va talablarni, javobgarliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham, uni amalga oshirish muayyan maqsadga asoslangan, aniq miqdordagi mablag'larni talab etgan, turli omil va vositalar safarbar etilganligi bilan jiddiy e'tiborni talab etadi va bu jarayonda investitsiya loyihasining har tomonlama puxta va sifatli ishlab chiqilishi eng zaruriy shartlardan hisoblanadi.

Amaliyotda investitsiya loyihasini ishlab chiqish, moliyalashtirish va samaradorligini baholashga turli sub'ektlar tomonidan turlicha yondashuvlar yuzaga kelishi ehtimolligini inobatga olib, respublikamizda investitsiya loyihalarini qanday sifat darajasida ishlab chiqish va uning samaradorligini oldindan aniqlash bilan birga, uni, haqiqatda, ta'minlash imkoniyatlarini ham loyihada yaratish omillarini o'rganish va ulardan foydalanish masalalarini o'zida to'liq mujassam etgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular

bugungi kunda o‘z ahamiyati bilan sifatli va yuqori samarali investitsiya loyihalarini yaratish va amalga oshirishda munosib asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Investitsion jozibadorlikni oshirish va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida investitsion faoliyatning qonuniy bazasini shakllantirish borasida bir nechta yillardan beri tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi, «Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida»gi va «Xorijiy investorlarning huquqlari kafolatlari va himoyalash choralari to‘g‘risida»gi, “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qonunlari qabul qilingan bo‘lib, bu me‘yoriy hujjatlar investitsion faoliyatni muvofiqlashtiruvchi qonuniy-me‘yoriy bazani yaratishga asos bo‘ldi. Bularga asosan, investitsiyalarini amalga oshirishning turli shakllari, moliyaviy resurslari hamda faoliyat ob’ektlari va sub’ektlari bo‘yicha umumiy huquqlar va majburiyatlar, ularni davlat tomonidan tartibga solish, nazorat qilish, berilgan kafolatlar va himoya qilish masalalari mustahkamlangan.

Bugungi kunda, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalash va xorijiy investorlarning ishonchini qozonish uchun qulay huquqiy shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion islohotlar sharoitida investitsiya sarmoyasi oqimini davlatlararo va xalqaro kelishuvlar ko‘rinishidagi davlat kafolatlari bilan ta‘minlash mumkin, investorlar uchun esa iqtisodiy islohotlar borishining kafolatlari ham muhim hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar tadrijiylik va barqarorlik xususiyatlariga ega bo‘lib bormoqda. Bunday natija avvalo O‘zbekiston Respublikasining investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunchiligida xalqaro investitsiya huquqining asosiy qoidalarini, xususan, xorijiy investor huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi, investorlar uchun

ma'lum preferensiyalarni berish to'g'risidagi asosiy qoidalarni va boshqalarni o'z ichiga olganligi bilan xarakterlanadi.

Shuni alohida aytib o'tish lozimki, O'zbekistonning investitsion jozibadorligi ortishi yetakchi xorijiy kompaniyalarning mamlakatimizda ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qiziqishlarini ortishiga olib keladi; ishbilarmonlik iqlimini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga qaratilgan yangi yechimlar ishlab chiqiladi; iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun yagona bozor sifatida mintaqaning jozibadorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

- 1.28.01.2022 yildagi PF-60-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi".
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2020 yildagi PQ-4563-sonli "O'zbekiston respublikasining 2020-2022-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
- 3.Axmedova, Y. S. (2024). Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mazmuni va mohiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 521-524.
- 4.Axmedova, Y. S., & qizi Mamadiyorova, F. S. (2024). Xodimlarni motivatsiyalashning psixologik asoslari. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 611-614.
- 5.Ахмедова, Ю. С. (2023). Инвестициялар-Иқтисодиётни Модернизациялашнинг Бош Омили. *Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnal*, 3(1), 226-229.
- 6.Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(05), 126-130.

7. Umirova, G. Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o‘rni va ro‘li //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – T. 5. – С. 64-66.